



## AVSTRALIYA MAXSUS OPERATSIYA KUCHLARINING PAYDO BO‘LISH TARIXI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

---

*Raxmonberdiyev F. A*

*Chirchiq OTQMBYU Taktika kafedrası*

*Maxsus bo‘linmalar taktikasi sikl boshlig‘i*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada «Maxsus operatsiya kuchlari» ma’nosini va Avstraliyaning Maxsus operatsiya quchlarining tayyorgarligi, mo‘ljallanishi hamda qo‘llanilishi yo‘nalishlari ko‘rsatib o‘tilgan.

**Tayanch so‘zlar:** Komandos polki, maxsus operatsiya kuchlar, rendjerlar bo‘linmasi, xujumkorona va qutqaruv operatsiyalari, Yashil beret, gruppа borbi s terrorizmom.

**Аннотация:** В данной статье освещены основные понятия «Силы специальных операций», а также вопросы предназначения, подготовки и боевого применения подразделений Сил специальных операций Австралии.

**Ключевые слова:** полк Командос, Сил специальной операции, подразделения ренджеров, наступательные и спасательные операции, зеленый берет, гТерроризмга қарши қураш гурухи.

### AVSTRALIYA

Avstraliyaning “Komandos” polki boshqa harbiy qismlarga qaraganda yangi Maxsus operatsiya kuchlari bo‘linmalaridan biri hisoblanib, u Avstraliyaning boshqa reyndjerlar bo‘linmasidan bir muncha farqlidir.

“Komandos” bo‘linmasi, ko‘proq tezkor razvedka quchlari qo‘shilmasi bo‘linmasiga o‘xshash vazifalarni amalga oshiradi.

Avstraliyaning komandos bo‘linmasi va Buyuk Britaniyaning komandos bo‘linmasi bilan bir biriga o‘xshash tomonlari ko‘p, lekin

nomzodlarni ya’ni shaxsiy tarkibni tanlash qoidalari boshqacha, Amerikaning reyndjerlar bo‘linmasi bilan taqqoslaganda juda ham katta diapazon imkoniyatlari mavjud. [1,2]

Avstraliyaning Kommandos bo‘linmasining xarbiy xizmatchilari universal jangchi hisoblanadi va Buyuk Britaniyaning SAS bo‘linmalarining shaxsiy tarkibiga qaraganda bo‘linma asosan chuqur razvedka va maxsus vazifalarni bajarish hamda janglar olib borishiga qaratilgan.

Komandos bo‘linmasi xujumkorona va qutqaruv operatsiyalarni dengizda



amalga oshirish uchun mo'ljallangan bo'lib, katta otryadlar yoki kichik otryadlar tarkibida harakatlanadi. Bo'linmalari katta masshtabli va kichik reydlarni, dushman front ortida har qanday vaziyatda diversiya o'tkazish uchun ham mo'ljallangan.

O'quv protsessi "Komandos" bo'linmasiga istak bildirgan ya'ni maxsus bo'linmalarda xizmat qilishni xoxlovchi nomzodlar uchun baza va yuqori umumiy tayyorgarlikdan uch oy davomiyligida tayyorgarlikdan o'tadi. Bu AQSH piyoda qo'shinlarini tayyorlash kursidan ko'proq dengiz piyodasi o'quv protsessiga yaqinroq muddatlarda tayyorlash jarayoni amalga oshiriladi. [1,2]

"Komandos"ning maxsus bo'linmasida xizmat qilish uchun istak bildirgan nomzod kirish sinoviga ruxsat berishdan oldin ikki oylik maxsus tayyorlov kursini o'tadi.

Kirish sinovidan o'tgan nomzodlar uch haftalik "Komandos" maxsus bo'linmasining maxsus kursiga jo'natiladi. Bu vaqtga qadar "Komandos" maxsus bo'linmalarida xizmat qilish uchun istak bildirgan nomzodlarning 60% dan 80% gacha tanlovlar sinovidan o'tolmasdan ilgari xizmat qilgan joylariga qaytishgan. Bu tanlovning yana bir tomoni shundaki, AQSH armiyasining «Yashil beret» bo'linmasining maxsus tanloviga ham o'xshaydi.

Har doimdek "Komandos" maxsus kursining har bir bosqichlari yakuniga ko'ra 50-70% nomzodlar xizmat qilish uchun qoladi va ularga keyingi sinov uchun ruxsat beriladi.

Kurs yakunlarida nomzodlar tarkibi bilan vazifani bajarishga to'sqinlik qiladigan qo'rquvni yengib o'tish sinovidan ham o'tadilar.

Sinovlarni topshirish davomida qorong'uda 100 metr masofaga ega bo'lgan yer tagida yopilgan trubada emaklab borish, 100 metrli minora balandligidan tushish va kechasi 400 metrdan to 1000 metrgacha dengiz qirg'oqidan dengizga qarab suzishdan iborat.

Kursning birinchi haftasida "Komandos" Maxsus operatsiya kuchlari bo'linmasi shaxsiy tarkibi «Do'zax haftasi» deb atashadi. Bu hafta davomida ko'p nomzodlar sinovlardan o'tolmasdan qoladi. [1,2]

Keyingi ikkinchi haftada nomzodlarning jismoniy va aqliy qobiliyatini tekshirishni davom etadi. Ushbu sinovlarning barchasi dala o'quv mashqlari bilan yakun topadi. Komandos kursini muvaffaqiyatli tamomlagan harbiy xizmatchilarga "Yashil beret" va maxsus operatsiya kuchlari "Komandos" nomli emblema hamda sertifikat bilan taqdirlanadi. Sinovdan o'tgan harbiy xizmatchilar bosqichma-bosqich keyin o'zining mahoratini oshirish, amfibiya (suv osti) operatsiyalar maktabida va aholiy yashash joylarida ham jangovar harakatlar olib borish kursiga



ham taxsil olishni davom ettiradi. [1,2]

Maxsus operatsiya kuchlari “Kommandos” polkining birinchi batalyoni zahira hisoblanib, unda ikkita alohida rotalaridan iborat bo‘lib: birinchi rotasi Mosmenda (Yangi Janubiy Uels)da joylashgan, ikkinchisi rotasi esa Uilyamtaun (Viktoriya)da joylashgan.

Har ikkala rotalarning shtat tuzilishi bir xil standart, o‘quv dasturi va bir xil qurollardan iborat.

Maxsus operatsiya kuchlari bo‘linmalariga undan tashqari terrorizmga qarshi kurash vazifasi qo‘yilgan bo‘lib, ularning shtat tuzilishida dala razvedka va merganlar bo‘linmasi ham mavjud. [1,2]

Birinchi va to‘rtinchi kommandos polklarida shaxsiy tarkibni tanlash, tayyorlash va mashq qilish Singleton shahrida joylashgan Maxsus operatsiya kuchlari bo‘linmalarini tayyorlash va mashg‘ulotlar o‘tkazish markazida boshqa kuch tuzilmalari bilan hamkorlikda bir-birining vazifalaridan kelib chiqib o‘xshash mashqlarni amalga oshiradi. [1,2,3]

**Nomzodlar yashil beret olishiga qadar qo‘yidagi kurslarni o‘tadi:**

qurol va anjomlar kursi;

o‘quv kursi;

vertoletdan arqon va trosslar yordamida tushish va ko‘tarilish kursi;

aholiy yashash joylarda kommandosni jangovar harakat olib borish kursi;

MOQ parashyut tayyorgarligi kursi, suvga tushish o‘z ichiga oladi;

suv osti (amfibiya) tayyorgarligi;

kichik balandliklarda turgan vertoletlardan sakrash va tez harakatlanuvchi tortish moslamasi (lebedka)dan foydalangan holda vertoletga ko‘tarilish kursi. [1,2]

Bundan tashqari, biron bir mutaxassislikni egallash uchun tayyorlov kursi (portlatish ishlari, aloqa va merganlik tayyorgarligi)ni o‘tashi kerak. [1,2]

Hamda “Komandos” maxsus bo‘linmasining harbiy xizmatchilarining malakasini oshirish kursi ham mavjud bo‘lib, unda razvedkachilar, maxsus qurollar, minomyotchilar, merganlar, Maxsus operatsiya kuchlari bo‘linmalarining alpenistlarini tayyorlash mutaxassisliklari kursi, tog‘larda va ob-havoning sovuq holatlarida yashovchanlikni tashkillashtirish va maxsus operatsiya olib borish kurslarida tahsil oladilar. [1,2]

Kurslarda jangovar vaziyatda yashovchanlik va chet tillarini o‘rgatish tizimlari ham yo‘lga qo‘yilib ushbu yo‘nalishlar bilan ham mashg‘ulotlar tashkillashtiriladi va amalga oshiriladi. Keyingi mutaxassislashgan kurslar alpinizm, parashyutizm va parashyut-mahorati, qo‘l jangi, maxsus qurol, tog‘da jangovar xarakatlarda



yashovchanik yo‘riqchilarini tayyorlash xamda komandos maxsus bo‘linmalarining seksiya komandirlari va piyoda vzvodlar komandirlarini tayyorlash jarayonlari keng ko‘lamda olib boriladi. [1,2]

Shu bilan birga chet el davlatlari bo‘linmalariga harbiy yordam berish, mashqlar va hamkorlikni tashkil qilish bo‘yicha yo‘riqchilar ham tayyorlanadi. [1,2]

Bu yuqori mutaxassislashgan kurslariga tushishdan oldin, shaxsiy tarkib bir necha yil xizmatni o‘z bo‘linmasiga olib borishi kerak.

Razvedka va terrorizmga qarshi kurash kursiga tushish juda ham qiyin bo‘lib, shaxsiy tarkibni asosan Havo-desant qo‘shinlarining suv kemalari va tez harakatlanuvchi Maxsus operatsiya kuchlari bo‘linmalarining katerlariga mashqlarni bajarish va harbiy xizmatchilarni tayyorlashni amalga oshiradi. [1,2]

Ushbu maxsus polk tarkibida Terrorizmga qarshi qurash guruhi ham mavjud bo‘lib, ushbu guruhga maxsus tanlov amalga oshirgan shaxsiy tarkib qo‘shimcha terrorizmga qarshi kurash tayyorgarligi kursini o‘tadi va bo‘linmaning amaliy ko‘nikmalari oshirish maqsadida, shu bilan birga hamkorlikda jangovar vazifalarni bajarish uchun tashkil topilgan. [1,2]

Terrorizmga qarshi qurash guruhi shaxsiy tarkibi jangovar qo‘llash hududiga vertolet (havo transporti)dan arqon, tross va maxsus tushish vositalari yordamida tushish mahorati bilan shug‘ullanadi.

Avstraliyaning Terrorizmga qarshi qurash guruhi (TQKGr) shaxsiy tarkibining mahoratini oshirish tayyorgarligi va hamkorligini amalga oshirish uchun domiy ravishda chet el armiyasining terrorizmga qarshi qurash Amerikaning Delta, SEAL oltinchi otryadi va Angiliyaning SAS bo‘linmasi bilan hamkorlikda o‘quv, mashqlar tashkil etadi. [1,2]

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Internet tarmog‘i. (Vikipediya).
2. Журнал зарубежных стран.
3. “Armiya.@ uz” сайти.
4. O‘R QK “Vatanparvar” gazetasining 2019 yilgi 32, 33 - sonlari.
5. “Vestnik” jurnali.